

# TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETINING 2022/2023 O'QUV YILIDA BAKALAVRIAT BOSQICHI BIZNES BOSHQARUV – MENEJMENT YO'NALISHIGA QABUL QILISH TO'G'RISIDAGI NIZOM

<p><b>Onlayn ariza</b></p>	<p><b>Sana</b> 25-Mart (Juma), 9:00 – 11-May (Chorshanba), 18:00 2022-yil (Birinchi qabul)16-May (Dushanba), 9:00 – 8-Iyul (Juma), 18:00 2022-yil (Ikkinchi qabul)11-Iyul (Dushanba), 9:00 – 31-Avgust (Chorshanba), 18:00 2022-yil (Uchinchi qabul) Sizning arizangiz – Qabul komissiyasidan tasdiqlovchi elektron xat olganingizdan so'ng "to'liq" deb hisoblanadi. Arizangiz qabul qilingandan so'ng, Siz – Qabul dasturini bekor qila olmaysiz yoki o'zgartira olmaysiz.</p>
<p><b>Imtihon sanasi</b></p>	<p>2022/2023 o'quv yili uchun uchta qabul imtihoni o'tkaziladi: Ikkinchi imtihon 11-iyul kuni Toshkent vaqt bilan soat 9:00 da bo'lib o'tadi. Iyul imtihoniga ro'yxatdan o'tish ochiq.Uchinchi qabul sentyabr oyida bo'lib o'tadi (aniq sana va tartib qoidalar keyinroq e'lon qilinadi).</p>
<p><b>Qabul kvotasi</b></p>	<p>200</p>
<p><b>Ta'lim tili</b></p>	<p>Ingliz tili</p>
<p><b>O'qish to'lovi</b></p>	<p>28 500 000 so'm</p>

<b>Diplom</b>	O'zbek va AQSH* * Pitsburg davlat universitetining "2+2" dasturiga o'tish kerak (AQSH)
<b>Qabul imtihoni</b>	LMS (Matematika, Ingliz tili, Mantiq) Matematika: 18 ta savol (vaqt: 66 daqiqa) Ingliz tili: 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa) Mantiq: 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa) To'liq onlayn imtihon 30 ta savoldan iborat bo'lib, 90 daqiqa davom etadi. Har bir savolda 5 ta variant mavjud, ammo ulardan faqat bittasi to'g'ri. Tanlangan javoblar quyidagicha baholanadi: 1 ball – agar javob to'g'ri bo'lsa 0 ball – agar javob noto'g'ri bo'lsa Barcha savollar ingliz tilida bo'ladi!
<b>Qabul qilinuvchi sertifikatlar</b>	(qabul imtihonini topshirmaslik uchun): IELTS 6.0; SAT; GMAT; GRE. IELTS 7.5 = imtihonsiz qabul + o'qish toloviga 50% chegirma (faqat 2022/2023 o'quv yili uchun) IELTS 8.0 = imtihonsiz qabul + o'qish toloviga 75% chegirma (faqat 2022/2023 o'quv yili uchun) Sertifikat ariza topshirilgan sanada amal qilishi kerak.
<b>Imtihon natijalari</b>	Abituriyentlar o'z natijalarini onlayn imtihon yakunida bilib oladi. Nomzodlarning to'liq ro'yxati imtihon natijalaridan keyin bir hafta ichida e'lon qilinadi.

<b>Hujjatlarni topshirish</b>	Imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng, kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar Qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari shart: • pasport (asli va nusxa) – hujjatning asli qaytarib beriladi ; • 3×4 o'lchamdagi 4 ta rangli fotosurat; • o'rta va o'rta maxsus ta'lim haqidagi hujjat – attestat, diplom va ilovasi; • IELTS sertifikatini 5,5 yoki undan yuqori bal.
<b>Manzil</b>	Qabul imtihonlari Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tadi: 100095, O'zbekiston, Toshkent, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 17 (Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, sobiq "Nukus" kinoteatri, "Asia.uz" supermarketi).